(E) ISSN: 3030-3214
Volume 3, № 3
2025

UO‘K: 551.763.12 10.70769/3030-3214.SRT.3.3.2025.3

QASHQADARYO BOTIQLIGIDAGI QUYI BO‘R YOTQIZIQLARINING LITOLOGIK-FATSIAL ZONALLIGI

Jurayev Fazliddin Ochilxonovich
Dotsent, Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O‘zbekiston
E-mail: fazliddin_ng@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-7037-5946

Annotatsiya. *O‘rganilayotgan hududda quyi bo‘r davri yotqiziqlari juda keng tarqalgan bo‘lib, ularning cho‘kindilari o‘ziga xos litologik-fatsial va paleontologik xususiyatlari tufayli butun mezozoy cho‘kindi kompleksi kesimida aniq va yorqin ajralib turadi. Quyi bo‘r jinslarining moddiy tarkibi va turli litologik qatlamlari fatsial-paleogeografik to‘planish sharoitlarini har tomonlama o‘rganish va jinslarning fatsial turlari o‘rtasidagi yaqin genetik bog‘liqlikni, shuningdek, turli foydali qazilmalarning joylashish tarzini geologik-paleogeografik qonuniyatlar orqali aniqlash geologiya-qidiruv ishlarini olib borishda muhim qidiruv mezonlari hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Toshqo‘rg‘on, Yakkasaroy, Langar, G‘ilon, Kulqamish, Maydanak, Shoxshor va Dukonxona, cho‘kindi, terrigen, xemogen, pog‘onali-terrasa, paleozoy, archasimon, alb va senoman, okuzbuloq, almurod, qarabil.*

ЛИТОФАЦИАЛЬНАЯ ЗОНАЛЬНОСТЬ НИЖНЕМЕЛОВЫХ ОТЛОЖЕНИЙ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ПРОГИБА

Джураев Фазлиддин Очилхонович
Доцент, Каршинский государственный технический университет, Карши, Узбекистан

Аннотация. *Нижнемеловые отложения имеют весьма широкое распространение на изучаемой территории, а их осадки в силу своих специфических литолого-фациальных и палеонтологических особенностей отчетливо и ярко выделяются в разрезе всего мезозойского осадочного комплекса. Комплексное изучение вещественного состава нижнемеловых пород, фациально-палеогеографических условий накопления различных литологических слоев и установление тесной генетической связи между фациальными типами пород, а также закономерностей распределения различных полезных ископаемых по геолого-палеогеографическим закономерностям являются важными поисковыми критериями при проведении геологоразведочных работ.*

Ключевые слова: *Ташкурган, Яккасарай, Лангар, Гилан, Кулькамыш, Майданак, Шохшор и Дуконхона, осадочные, терригенные, гемогенные, ступенчато-терраса, палеозойские, архаичные, альбские и сеноманские, окузбулак, альмурод, карабиль.*

LITHOLOGICAL-FACIES ZONALITY OF LOWER CRETACEOUS DEPOSITS OF THE KASHKADARYA TROUGH

(E) ISSN: 3030-3214
Volume 3, № 3
2025

Juraev Fazliddin Ochilkhanovich
Docent, Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. *Lower Cretaceous deposits are very widespread in the study area, and their sediments, due to their specific lithological-facial and paleontological features, are clearly and vividly distinguished in the section of the entire Mesozoic sedimentary complex. A comprehensive study of the material composition of Lower Cretaceous rocks, facies-paleogeographic conditions of accumulation of various lithological layers and the establishment of a close genetic relationship between facies types of rocks, as well as patterns of distribution of various minerals according to geological-paleogeographic patterns are important search criteria in geological exploration.*

Keywords: *Tashkurgan, Yakkasaray, Langar, Gilan, Kulkamysh, Maidanak, Shokhshor and Dukonkhona, sedimentary, terrigenous, hemogenic, stepped-terrace, paleozoic, archaic, alb and cenomanian, okuzbulak, almurod, karabil.*

Kirish. Qashqadaryo egilmasi va unga tutash hududlar ilk bo‘r davri yotqiziqlari shakllanish davrida, ya’ni kuchsiz sho‘rlangan laguna sharoitida qizg‘ich tusli gilli-karbonat-gipsli cho‘kindilarning to‘planish davrida tekis relefdan iborat bo‘lgan. Titon asri oxiri va valanj asri boshlarida (quyi karabil davri) usish bilan bog‘liq mintaqaviy tektonik harakatlarning yanada uzoqroq namoyon bo‘lishi hamda keskin kontinental iqlim sharoiti joylarda uta sho‘r laguna gidrokimyoviy cho‘kindilarining terrigen-xemogen tarkibli sho‘rroq va chuchuk suvli lagunalar bilan almashinishiga olib keldi.

Muhokama. Qorabil davrining ikkinchi yarmidayoq (valanji asri) laguna-dengiz suvlarining janubi-g‘arbga to‘liq va uzil-kesil regressiyasi natijasida nafaqat Qashqadaryo egilmasi, balki ilgari tuzli laguna suvlari bilan band bo‘lgan Janubi-G‘arbiy Hisor tizmalarining (JG‘HT) butun hududi suvdan to‘liq ochilib qolgan. O‘sha paytda bu hudud janubiy va janubi-g‘arbiy tomonga biroz qiya bo‘lgan qirg‘oqbo‘yi tekisligiga aylangan bo‘lib, bu yerda bir-biriga parallel bo‘lgan quruqlik daryolarining keng tarmog‘i va hamda ayrim kichik chuchuk suvli ko‘llari bo‘lgan o‘zanlararo qayir tekisliklari paydo bo‘lgan [1, 5].

Tadqiqot olib borilayotgan hududning quyi bo‘r davri yotqiziqlari litologik-fatsial va paleogeografik xususiyatlarini tavsiflashdan oldin, ilgari bu masalalar bilan N.P.Luppov, S.N.Simakov, V.I.Popov, S.D.Makarova, A.A.Filippov, A.G.Babaev, Ye.A.Kochnev, V.I.Troyskiy, M.E.Egamberdiev, T.X.Shoymurotov, N.Sh.Xayitov va boshqalarning ishlarida turli darajada va ma’lum bir maqsadlarda ko‘rib chiqilganligini ta’kidlash o‘rinli deb hisoblaymiz.

Shuningdek, Markaziy Hisor geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi (GQE) va “O‘zgeoburneftgaz” AJ korxonalarining qattiq foydali qazilmalar va neft-gaz bo‘yicha izlov-qidiruv ishlari jarayonida tadqiqot hududining bir qator tuzilmalarida nisbatan yangi va boy geologik-geofizik materiallar olindi.

Geologlar va litologlar tomonidan keng qo‘llaniladigan litologik-fatsial tahlil usullarini hisobga olgan holda, xususan V.I.Popov tasnifi bo‘yicha fatsial tahlilning dinamik tamoyilini qo‘llash Qashqadaryo egilmasining quyi bo‘r jinslari kesimida yer usti ko‘tarilmalari, yer usti va suv osti tekisliklari va ularning kamarlari fatsiyalari komplekslarini ajratish imkonini berdi [2].

Quruqlikdagi ko‘tarilma fatsiyalari majmuasi paleoxisorga tutashgan landshaft zonalarida rivojlangan bo‘lib, mezozoygacha bo‘lgan jinslardan tashkil topgan va asosan kechki yura yotqiziqlari bilan cheklangan.

Kechki yura davridagi eng katta transgressiyadan va hududning umumiy tekislanishidan so‘ng, cho‘kindi to‘planish zonalarining ko‘tarilgan qismlarini yuvib ketishiga va mavjud botiqliklarni yangi, ammo boshqacha genezisli qizil rangli loyli cho‘kindilar bilan to‘ldirishga olib kelgan ba’zi tektonik jonlanish davri keldi. Janub va janubi-g‘arbga biroz egilgan tekislik relefi yirik daryo vodiylarini (masalan, Paleoqashqadaryo) yuvib qazish uchun qulay bo‘lib, yon irmoqlarning katta tarmog‘i mavjud edi, ularning suv yig‘ish bazisi hududning shimoliy chegarasida rivojlangan paleoko‘tarilmalar edi.

Ilgari Qashqadaryo egilmasining shimoliy yarmi hududida bo‘r eroziyasi tekisliklari aniqlanmagan, ammo ularga yuqori yura karbonat

(E) ISSN: 3030-3214
Volume 3, № 3
2025

qatlamidagi juda kichik qiyaliklar bilan tavsiflangan tepaliklarini qo‘shish mumkin. Bu yerda bo‘rdan oldingi va bo‘r davridagi sirt (yuza) relefi mavjud deb taxmin qilish mumkin. Bunday tekislanish yuzalari Yakkabog‘ tog‘larida (Shurasan, Maydanak, Xontaxta maydonlari) ma’lum. Bu yuzalar odatda turli balandliklarda bo‘lib, relefning pog‘onali-terrasa tuzilishini aks ettiradi. Bu yerda cho‘kindi material yotqiziq holatiga kelgan, bundan oldin u allyuvial oqimlarga qo‘shilgan va sezilarli fizik-kimyoviy o‘zgarishlarga uchragan bo‘lishi mumkin.

Yonbag‘ir fatsial kamari cho‘kindilari oldingi kamar relefining mahalliy pasayishlarida yotqizilgan va deyarli saqlanib qolmagan. Ular faqat mayda linzalar va paleozoy jinslari hamda yura ohaktoshlarining o‘tkir burchakli brekchiyasimon bo‘laklari ko‘rinishida aniqlangan. Ushbu holating mavjudligi yura va bo‘r cho‘kindi to‘planishi o‘rtasida tanaffus mavjudligidan dalolat beradi, bu ko‘tarilmalarda sodir bo‘lgan (1-rasm).

Quruqlik tekisliklari fatsiyalari majmuasi Yakkabog‘ tog‘larida keng rivojlangan bo‘lib, ular karabil, almurod va qiziltosh svitalari kesmasidan tashkil topgan. Fatsiya cho‘kindilarining tarqalishi botiqliklarning rivojlanish maydoniga to‘g‘ri keladi va ehtimol, ular tomonidan nazorat qilinadi, bu mintaqaning eroziya bazisi gradientlari darajasi bo‘lib, qalin (o‘nlab metr) dag‘al (donador) bo‘lakli cho‘kindilar to‘plamlarining shakllanishiga olib keldgan. Ular yaxshi saralanmagan konglomeratlar, shag‘alli qumtoshlar, qumtoshlar va rang-barang, odatda qizil-qo‘ng‘ir rangli qumli alevrolitlardan iborat.

Yelpig‘ichsimon-aralash zona. Ushbu zonaning dinamik fatsiyalarining tipik vakillari egilmaning shimoliy qismida, Toshqo‘rg‘on maydoni kesmalarida (karabil va qiziltosh svitasi hajmida) aniq ajralib turadi, bu yerda ularga saralanmagan har xil toshli konglomeratlar va xarsang toshli brekchiyalar qalinligi to‘g‘ri keladi (1-rasmga qarang). Qatlamning qalinligi bir necha metrdan dastlabki o‘nlab metrgacha o‘zgarib turadi. Ko‘ndalang kesimi 2-3 sm dan 50 sm gacha bo‘lgan dag‘al bo‘lakli material kvars, kremniy, turli xil metamorfik slaneslar, kamroq ohaktoshlar, dolomitlar va marmarlar, shuningdek, qizil-qo‘ng‘ir gillar, alevrolitlar va qumtoshlarning qotishmalaridan iborat. Bo‘laklar ko‘pincha o‘tkir burchakli, dumaloqlanmagan, kamdan-kam hollarda yarim dumaloqlangan, chetlari yumaloq ko‘rinishdan iborat. Sement karbonat-gil-temirli jinslarning rangi qizil-qo‘ng‘ir. Yotqiziqlar qatlamsmon teksturaga ega, ba’zan daryo tipidagi linzasimon, kuchsiz ifodalangan gorizontal, qiyshiq va diagonal yo‘nalishga ega.



1-rasm. Pachkamar-Oyqo‘ton-Langar-Olma-Toshqo‘rg‘on chizig‘i bo‘ylab bo‘r davri yotqiziqlarining litologik-fatsial profili (Tuzuvchi: F.O.Juraev, 2024 y.).

Konglomeratlarda ko‘pincha turli donali qumtoshlarning linzalari, qumtosh qatlamlarida esa dag‘al bo‘lakli jinslarning linzalari qayd etiladi. Bunday linzalarning uzunligi boshlang‘ich linzalardan o‘nlab metrgacha, qalinligi esa 0,1 dan 2,5 m gacha bo‘ladi.

Yelpig‘ichsimon-aralash zona janubiy va g‘arbiy chekka qismlarida sezilarli darajada shag‘al-qum-alevritli litofatsiyalar bilan ifodalanadi.

Yelpig‘ichsimon-bo‘lakli zona. Ushbu fatsial zona cho‘kindilari Yakkasaroy, Langar, G‘ilon (karabil, olmurod va qiziltosh svitalari) maydonlari kesimlarida keng tarqalgan. Fatsiyalar bir nechta tog‘ daryolarining birlashgan konussimon yoyilmalarining shleyfidan iborat bo‘lib, ular, ehtimol Paleoqashqadaryo, Paleotanxozdaryo va Paleolangardaryo asosiy o‘zanlarini tashkil etgan. Har xil shag‘alli konglomeratlar, gravelitlar, har xil donali qumtoshlar va qumlashgan alevrolitlarning qatlamlanishi bilan xarakterlidir. Gravelitlar va qumtoshlar zonadagi tog‘ jinslarining asosiy turlari hisoblanadi. Donador materiallarni saralanishi juda yomon. Jinslarning rangi qizil-qo‘ng‘ir, qo‘ng‘ir-qizil, ba’zi

(E) ISSN: 3030-3214
Volume 3, № 3
2025

joylari kulrang. Ayrim pachkalarning qalinligi o‘nlab metrlarga yetadi. Yon tomonlari bilinar-bilinmas o‘zan psefitlariga o‘tadi (Toshqo‘rg‘on maydoni, 1-rasmga qarang). Ushbu zonaning yelpig‘ichsimon-bo‘lakli fatsiyalari bilan mis namoyonlari va rux mineralizatsiyasi bilan bog‘liqligi aniqlangan (G‘ilon namoyonlari).

V.I.Popov, S.D.Makarova, R.Yu.Muzafarova, M.E.Egamberdiev, S.N.Nurtaev va boshqalarning fikriga ko‘ra, quruqlik tekisliklarining fatsiyalariga tekislik-vodiy mintaqasida to‘plangan cho‘kindilar kiradi, ular makonda o‘zanning bo‘lakli va o‘zan usti yoki o‘zan usti-ko‘l (mayda tuproqli) zonalariga bo‘linadi.

O‘rganilgan hududdagi ***suv osti tekisliklari fatsiyasiga*** avvalgi tadqiqotchilardan keyin dengiz va ko‘l-laguna suv havzalari tubida hamda daryo vodiylarining oxirgi suv usti va suv osti qismlarida to‘plangan cho‘kindilarni kiritilgan [5].

Yotqiziqlar juda murakkab genezisga ega. Ularning shakllanishi tekislik-vodiy mintaqasining suv usti delta uchastkasi bilan bog‘liq bo‘lib, uning suv ostidagi davomi hisoblanadi. Suv usti va suv osti delta mintaqasining shakllanishida asosiy rolni daryo suvlarining oqimlari o‘ynaydi, ular suv havzasida tarqaladi, qirg‘oqdan suv havzasining chuqurligiga intiladi va oqova oqimlarini hosil qiladi. Shu sababli, tavsiflangan yotqiziqlar tarkibi bo‘yicha suv osti delta yotqiziqlariga qaraganda oqimlar mintaqasi yotqiziqlariga yaqinroq.

Suv osti deltasi hosil bo‘lishida oqish oqimlaridan tashqari, qirg‘oq bo‘ylab va suv osti deltasi sayozliklarida ta’sir etuvchi to‘lqinlar, ko‘tarilish-tushish oqimlari va sayozliklardagi shamol jarayonlari ham ishtirok etadi [5].

O‘rganilayotgan hudud cho‘kindilari Paleotankxozdaryo, Paleouradaryo, Paleqashqadaryo va boshqa vodiylardan hosil bo‘lgan qirg‘oqbo‘yi tekisligining keng akvatoriyasida rivojlangan. Shu bilan birga, suv osti deltasi chegaralari dengiz suvlari va quyi bo‘r lagunalarining transgressiyasi va regressiyasiga muvofiq, goh janubga va janubi-g‘arbga chekinadi, goh shimolga va shimoli-sharqqa siljiydi.

Quyi bo‘r davrining suv osti delta fatsiyalari aeromorf va gidromorf rangdagi qumtoshlar, alevrolitlar, gillar va organogen-detritli va detrit-oolitli ohaktoshlardan iborat. Yirik bir yo‘nalishli ko‘p yarusli va tog‘orasimon qiyshiq qatlamchalar va turli xil mavjlanish belgilari, daraxt tanalari va shoxlarining minerallashgan bo‘laklarining mavjudligi va ba’zan mis ma’danlashuvi xarakterlidir. Ushbu singenetik va epigenetik ma’danlashuv O‘zbekistonning janubiy hududlaridan o‘rta hududlariga, shuningdek, Hisorning janubiy yonbag‘riga (Sharg‘un-Qoratog maydoni) qarab yoshga bog‘liq pog‘onali siljishni boshdan kechiradi. quyi bo‘r suvosti deltalari qumli cho‘kindilarining qalinligi 20-60 m oralig‘ida o‘zgaradi.

Suv osti-delta bo‘lakli zonasi (bar kichik zonasi). U shartli ravishda tadqiqot olib borilayotgan hududning shimoliy hududlarida – Kulqamish, Maydanak, Shoxshor va Dukonxona maydonlarida barrem va erta aptning qiya qatlamli qumli cho‘kindilarining to‘planish davri orqali o‘rnatildi (2-rasm).



2-rasm. Kulqamish-Maydanak-Shoxshor-Dukonxona chizig‘i bo‘ylab quyi bo‘r davri yotqiziqlarining litologik-fatsial profili (Tuzuvchi: F.O.Juraev, 2024 y.).

Delta yotqiziqlarining qiyshiq qatlamli teksturasi daryo va to‘lqin urilish turidagi yotqiziqlardan shu bilan farq qiladiki, qalinligi 0,5-2,0 m va undan ortiq bo‘lgan alohida seriyalar odatda yupqa qiyshiq qatlamlarni ta’kidlovchi turlicha maydalangan faunistik va o‘simlik detritlarini o‘z ichiga oladi. Odatda yaxshi saralangan klastogen qum-alevrit va organogen materiallardan tashkil topgan qiya seriyalarning morfologiyasi ham o‘ziga xosdir. Bundan tashqari, deltasimon qiyshiq qatlamlar chastotasi umuman ko‘pincha S-simon shaklga ega bo‘lgan qiyshiq qatlamlarning bir tomonlama yo‘nalganligi, qatlamlar qalinligi va seriyali choklarning yotish burchaklarining o‘zgaruvchanligi, ba’zan S-simon qiyshiq qatlamlar seriyasining ponasimon shaklga ega bo‘lishi bilan belgilanadi. Bunday qiyshiq qatlamlanish turi ko‘pincha

(E) ISSN: 3030-3214
Volume 3, № 3
2025

Qashqadaryo egilmasi va unga tutash JGʻHT hududlarida tarqalgan pastki va oʻrta aptning kaligrek va qoʻlqamish svitalari, oʻrta albaning luchak svitasi qumli-karbonatli jinslarida kuzatiladi.

Suv osti deltasi turgʻun zonasi tarkibida koʻmirsimon detrit, qoʻshimchalar, siderit konkretsiyalari, tub faunasi va qatlamlanishi boʻyicha muskovit tangachalari koʻrinishidagi qoʻngʻir-qizil dogʻli yashil gillar bilan ifodalanadi. Choʻkindilar kam qalinlikdagi 0,5-1,5 m va linzasimon qatlamlar koʻrinishida Oqrabot, Pachkamar va boshqa maydonlarda kaligrek svitasi kesimida rivojlangan. Gʻarbiy yoʻnalishda ularning qaliligi ortib boradi.

Laguna fatsial kamari choʻkindilari, asosan barremning laylimkon va machay svitalari hamda berrias-valanjinning olmurod va karabil svitalari kesimida tarqalgan boʻlib, ular turli kattalik va shakldagi yashil dogʻlar bilan qizil-jigarrang, olcha-jigarrang, qizgʻish-qoʻngʻir rangli gipslashgan gillar bilan ifodalanadi. Ularning shakllanishi nisbatan harakatchan gidrodinamik muhitga ega boʻlgan kuchsiz shoʻrlangan lagunada sodir boʻlgan.

Gil qatlamlari va pachkalari orasida koʻpincha qalinligi kichik (0,3-5,0 m) och kulrang, yashil-kulrang va koʻkimtir alevrolitlar, mayda donali glaukonitlar va qiya qatlamli qumtoshlar, sayoz suvli havzaga xos mavjlar (ryabi) kuzatiladi. Aftidan, bu jinslar janubi-gʻarbdan dengiz suvlarining qisqa muddatli bostirib kelishi (transgressiya) davrida hosil boʻlgan. Togʻ jinslarida muhrlangan torinosuella almuradisa, acrulammaina, textularia almuradisa kabi dengiz foraminiferalarining mavjudligi ham shundan dalolat beradi [5].

Laguna choʻkindilari neokom kesmasi umumiy hajmining 70-80% ni tashkil qiladi, shimoliy kesmalarda (Shurason maydoni) 40-50% gacha qisqaradi, svitalarning umumiy qalinligi 60-100 m.

Natijalar. Qashqadaryo egilmasida *toʻlqin urilma fatsial kamarining* choʻkindilari Yakkasaroy, Shoʻroson, Toshqoʻrgʻon, Gʻilon maydonlarining shimoliy kesimlaridagi kundalangtov (barrem), qoʻlqamish (apt) va luchak (alb) svitalari, shuningdek charshangʻi va oqqapchigʻay svitalari (alb) yotqiziqlari orasida rivojlangan.

Quyi boʻr davrining kundalangtov va luchak davrlarida dengiz sayozligi sharoitida (suv osti sayozliklarida) organogen (mshanka, korbula, ustritsa), organogen-detrit va oolitli ohaktoshlar mergellar, ohakli gillar va kulrang polimikt tarkibli qumtoshlar (0,5-2,0 m) qatlamlari bilan shakllangan.

Ohaktoshlarning ayrim qatlamlari, xususan dengiz tipratikanlarining ignalari boʻlgan ustritsa, pelesipod, mshanka faunasining chigʻanoqlaridan iborat. Ohaktosh qatlamlarining ustki yuzasida Pachkamar, Igrisu, Kulkamish, Tyubegatan maydonlari, Sherobod-Sariqamish antiklinal tizmasi hududlarida yirik toʻlqinsimon ryab belgilari kuzatiladi, ularning qirralari orasidagi masofa 50-60 sm gacha yetadi.

Ohaktoshlarning oolitli strukturasi, mavjlanish belgilari (znaki ryabov), ularning oʻlchamlari va tarqalish masshtablaridan qatʼiy nazar, dengiz tubi relefining sayoz-suv urilmali xarakterini va uning suvlarining faol dinamik rejimini koʻrsatadi.

Oʻrganilayotgan hududning janubiy va oʻrta hududlaridagi barrem oolitli ohaktoshlarda ham yirik toʻlqinsimon belgilar kuzatilib, ular yaqqol profilga ega va toʻlqinsimon qirralari aniq parallel joylashgan (Badaxshon, Yakkasaroy, Langar maydonlari).

Klanseyning boshida (kulqamish vaqti) apt dengizining butun akvatoriyasi sayozlashishni boshdan kechirdi, bu esa yuqorida koʻrsatilgan havza ichidagi sayozliklarning shakllanishiga olib keldi, ularning atrofida qalinligi 0,2 dan 20 m gacha boʻlgan ustritsalarning qalin devorli chigʻanoqlarining boʻlaklarini oʻz ichiga olgan katta boʻlakli kvars-kremniyli jinslar hosil boʻlgan [4].

Toʻlqin urilmali qumtoshlar qiyshiq qatlamli linzasimon kesishuvchi, ponasimon, turli yoʻnalishli “archasimon” va parsimon morfologiyasi bilan tavsiflanadi. Qiya seriyalarning qalinligi desimetrlar va birinchi metrlar bilan oʻlchanadi. Qiya qatlamlarning yotish burchaklari, odatda, 20-30° dan oshmaydi va koʻpincha janubi-gʻarb va shimoli-sharqqa yoʻnalgan boʻladi. Dengiz akvatoriyasi tomon yoʻnalishda toʻlqin urilish turi dengiz tubidan oqish turi bilan almashgan.

Shimoliy kesmalarda (Gʻilon, Shurasan, Shoxshar, Toshqoʻrgʻon maydonlari) toʻlqin urilishini mujassam etgan alb gillari rivojlangan boʻlib, ular kam qalinlikda boʻlib, asta-sekin terrigen qum-alevrit materiallari bilan boyib boradi va toʻliq

(E) ISSN: 3030-3214
Volume 3, № 3
2025

fatsial ravishda ular bilan almashinadi (1-rasmga qarang).

Mazkur kamarga xos cho'kindilar alb va senoman kesimlarida rivojlangan. Fatsial-paleogeografik sharoit birmuncha o'zgarishlarga uchragan. Cho'kindi to'planish havzasi usuvchan tektonik harakatlarning tez-tez namoyon bo'lishi va dengiz havzasi suv sathining o'zgarishi natijasida suvlarning dinamik va tuz rejimining tebranuvchi o'zgarishlarini boshdan kechirgan. Bunda, asosan sherobod davrida (alb va senoman asrlari oralig'ida) dengiz tubining butun maydonida bir vaqtning o'zida autigen va qayta yotqizilgan glaukonit donalari bilan sezilarli darajada boyitilgan kvars-dala shpati tarkibli saralangan qum va alevrit cho'kindilarining to'planishi sodir bo'lgan [4].

Qumtoshlar va alevrolitlar hamma joyda o'ziga xos yashil-kulrang va kulrang-yashil rangli bo'lib, ularning intensivligi ulardagi umumiy glaukonit miqdorining ortishiga bog'liq. Qum-alevritli tarkib, undagi glaukonit cho'kindilarining yuqori miqdori, ularning qalinligi 5-50 m bo'lganda mintaqaviy miqyosda saqlanib qolgan. Cho'kindilarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri tub-oqish tipidagi mayda bir yo'nalishli qiyshiq qatlamli tekstura hisoblanadi.

Glaukonitli cho'kindilar (jinslardagi glaukonit miqdori 40 % gacha yetadi) to'lqin urish kamaridan uncha uzoq bo'lmagan masofada, Langar-Dukonxona-Qorail-Tyubagatan maydonlari oralig'idagi alb va alb-senoman dengizlarining tub oqimlari ta'siri sharoitida shakllangan.

Ular oqim bilan doimiy yuvilganligi sababli eng yaxshi kollektorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning g'ovakligi 21% gacha, o'tkazuvchanligi 150 millidarsigacha. Neft-gaz geologiyasi sohasida ular X mahsuldor gorizont nomi bilan ma'lum bo'lib, Buxoro-Xiva neftgazli regionining bir qator konlarida (Gazli, Setalontepa konlari va boshqalar) ushbu gorizontda gaz uyumlari topilgan. Bundan tashqari, sanoat va qishloq xo'jaligi uchun ularning ulkan agroxom ashyo zaxiralariga ega bo'lgan glaukonitga boyligi katta ahamiyatga ega.

Markaziy tindiruvchi fatsial kamariga charshang'i (yuqori apt), kallamazar (quyi alb) va oqqapchig'ay (yuqori alb) svitalarining gillari kiradi, ular o'rta va janubiy hududlarda tarqalgan bo'lib, ular mustaqil pachkalarni (10-30 m) va qalin qatlamlarni (80-130 m) tashkil qiladi. Ularda doimiy ravishda kam qalinlikdagi (0,05 dan 0,8-1,0 m gacha) organogen va organogen-detritli glukonitli ohaktoshlarning qatlamchalari va qatlamchalari mavjud.

Gillar va ohaktoshlar tarkibida makro- va mikrofauna qoldiqlari (ammonitlar, pelesipodlar, gastropodlar, braxiopodlar, foraminiferalar, ostrakodalar) va ko'mirga aylangan o'simlik detritlari ko'p miqdorda uchraydi. Shuningdek, qo'ng'ir temirtosh (o'lchami diametri 3-5 dan 70 sm gacha va qalinligi 0,5-15 sm) va karbonatlar (ko'ndalang kesimi 20 sm gacha) disk shaklidagi yumaloq zanjirsimon joylashgan konkretsiyalar gil qatlamlari yuzasida qayd etilgan.

Loylar ushlab ko'rilganda yog'li, qalin va yupqa qatlamli, zich, mayda zarrali (tonkodispersniy) bentonitga o'xshash. Granulometrik tarkibda ularning 0,001 mm li fraksiyasi 40-60% ni, 0,1-0,01 mm li fraksiyasi esa 0,5 dan 10% gachani tashkil etadi.

Gillarning mineralogik tarkibi montmorillonitli, gidroslyudali va aralash qatlamli. Immersion muhitda gillarning alevritli fraksiyasidagi ulushlari (foizda): kvars – 60 gacha, dala shpatlari – 30 gacha, slyudalar – 5 gacha, gematit-limonit – 30 gacha, pirit – 50 gacha, barit – 20 gacha, glaukonit – 5 gacha, shuningdek epidot, sirkon, granat, sfen, turmalin va rogovaya obmanka – birinchi foizlarda aniqlangan.

Xulosa. Shunday qilib, Qashqadaryo egilmasi quyi bo'r yotqiziqlarining litologik-fatsial zonalligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- o'rganilayotgan hududda maydon va stratigrafik jihatdan keng tarqalishi bilan tavsiflangan quyi bo'r yotqiziqlarida terrigen va xemogen-organogen guruhlarning deyarli barcha ma'lum cho'kindi jins turlari: dag'al va mayda bo'lakli (brekchiyalar, konglomeratlar, gravelitlar, turli donali qumtoshlar, alevrolitlar, pattumlar) jinslardan tortib, gilli va karbonatlargacha uchrashi aniqlangan.
- ularning rangi turli tusdagi qizil, sariq, yashil, oq, kulrang, to'q kulrang, qo'ng'ir bo'lib, cho'kmalar hosil bo'lish davrida havzada o'zgaruvchan oksidlanish va tiklanish geokimyoviy va iqlim sharoitlari mavjudligini ko'rsatadi.
- yotqiziqlar bir zaylda quruqlik (tog'osti-yelpig'ichli, tekislik-vodiy, suv usti-delta) va suv-

(E) ISSN: 3030-3214
Volume 3, № 3
2025

osti (ko‘l-laguna, dengiz) komplekslariga tegishli. Ulardan birinchisi berrias, valanjina, goteriv va qisman barrem, apt va alba kesimlarida ajralib turadi, ularning umumiy qalinligi shimolda birinchi yuz metrdan janubda bir kilometrgacha yetadi. Ikkinchi kompleks berrias-valanjinda (quyi qarabil, almurod svitalari), barremda (okuzbuloq svitasi), apt, alb va alb-senomanda rivojlangan.

- dengiz fatsiyalari orasida qum-gilli, karbonatli jinslarda va kamdan-kam hollarda bazal konglomerat-gravelitlarda ifodalangan to‘lqin urilishi fatsiyasi jinslari eng ko‘p rivojlangan. Suv osti deltasi fatsiyalari qum-alevritli va gilli yotqiziqlar, markaziy cho‘kindi – gillar, chuqur tubdan oquvchi – glaukonitli qum-alevritli va organogen-detritli jinslar bilan ifodalanadi.

- u yoki bu turdagi cho‘kindi foydali qazilmalarning dinamik fatsiyalar turlari bilan o‘zaro bog‘liqlik aloqalari aniqlangan. Xususan, neokomning kontinental fatsiyalari bilan Xontaxta, Kulqamish, Langar, Tyubegatan maydonlarida mis, sochma oltin, Toshqo‘rg‘on maydonida kumush va kobalt, Makrid, Qamashi va Dehqonobod maydonlarida qurilish materiallari, shuningdek Yakkasaroy maydonida neft va gaz (apt XII va goteriv XIII mahsuldor gorizontlari) uyumlari mavjudligi aniqlangan. Glaukonitlar (Pachkamar, Karail, Langar, Olma, Kulkamish maydonlari), keramzit va sement xom ashyolariga yaroqli bo‘lgan bentonitsimon gillar (Kan, Pachkamar, Oqmechet maydonlari) hamda kvars-dala shpatli qumlar va alevrolitlar tub-oqimli va markaziy cho‘kindi tinish fatsiyalar bilan bog‘liqligi, shuningdek laguna va suv osti deltasi cho‘kindilariga oid gipsga istibolli maydonlar (Kansay, Langar) aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бабаев А.Г. Литология, палеогеография и нефтегазоносност меловых отложений Западного Узбекистана. Ташкент: АН РУз, 1979. -С. 17.
2. Попов В.И., Макарова С.Д., Филиппов А.А. Руководство по определению осадочных фатсиалных комплексов и методика фатсиално-палеогеографического картирования. -М.: Недра, 1963.
3. Хайитов Н.Ш. Бешкент-Қашқадарё букилмалари майдонларидаги остки бўр ётқизиқларида литологик-стратиграфик тутқичларнинг шаклланишини лито-фациал жихатдан асослаш // Тошкент, Узбек нефт и газ журнали. 2001, №1. 4-6 б.
4. Шоймуротов Т.Х., Юлдашев Ж.Ю. Особенности формирования и размещения месторождений полезных ископаемых в осадочных породах мезокайнозоя Узбекистана // Матер. Межд. конф. «Условия формирования, закономерности размещения и прогнозирования месторождений полезных ископаемых» и Межд. симпозиума «Современные методы исследований перспективы исползования включений минералообразующих сред в науке и практике АПИФИС-ИИИ. Ташкент, 2006. -С.94-96.
5. Эгамбердыев М.Э., Ишниязов Д.П., Шоймуротов Т.Х. Текстурный анализ меловых отложений Южного Узбекистана и его рол в реконструксии каналов транспортировки терригенного материала // Узб. геол.ж., 1992, №1, с.41-52.